

022
Kich A 15

QADAM
SAYID MUROD

Кагора


DOVYURAK DONO MALIKA

(Ertak-doston)



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHРИYATI
TOSHKENT—2009

ГДБ Узбекистан
ИНВ. № 348533



Bu ertak-dostonda tadbirkor va dona qiz Xumorning bosqinchi Ollom hujumidan ona shahri Urganchni qanday asrab qolganligi hikoya qilinadi.

Xumor Ollomning shumligi, hiylalarini aql bilan yengadi.


Iqtidorli shoir Qadam Sayid Murodning ko'zlagan maqsadi ham qadim Xorazmning ko'hna rivoyatlarini go'zal, o'ynoqi, baxshiyona ohanglarda qayta tiriltirib, bolalarga olis tarixdan hikoya qilib, el-yurt, millatga bog'liq tomirlarini mustahkamlab, ertak-dostonlar orqali singdirishdir.

O'ylaymizki, bu ertak-doston ham bolalarimizning sevimli kitoblaridan biri bo'lib qoladi.

MUQADDIMA

Bir ajoyib ertagim bor,
Bolajonlar, siz uchun.
Niyat qildim, shuni so‘zlab —
Bermoqchiman men bugun.






I

Qadim bir shoh bir necha yil
Ko'hna Urganch shahriga,
Hukmronlik qilgan emish,
Ota bo'lib ahliga.
U taxt nasib etgan kundan,
Yomonlarni qoralab,
Xalqparvarlar hisobiga
Vazirlarni saralab,
Topib har bir amaldorni,
O'z didiga mosini,
Tanlab olib xalq ichidan
Hattoki bosh qozini,
Donolarni hurmat bilan,
Taklif etib saroyga,

Ular bilan maslahatni
Qo'yib olib bir joyga,
Odilona farmon berib,
Tutganidan puxta ish.
Elning g'arib hayotida
Ro'y berganmish yuksalish...
Shohlik olib himoyaga,
Agar bo'lsa kim zaif.
Och, yupunlik yo'qolganmish
Asta-sekin kamayib.
Bozorlarda arzonlashib
Qolgan emish narx-navo.
Duo qilib xalq deganmish,
«Shohni asra, yo Xudo!»
Xalq duosin eshitib shoh,
Hursand bo'lib ketganmish.
Kelajagi uchun elning
Yangi reja bitganmish.

Ma'rifatli donolarni
Qilib doim parvarish,
Fanga rivoj topdirgan mish
Oqilona tutib ish...



II

O'sha shohning bo'lgan ekan
Xumor degan bir qizi.
Sarviqomat, ko'zi shahlo,
Kulib turgan gul yuzi.



Yoshligidan tarbiyalab
Uni dono bir otin,
O'tagan mish ham onalik,
Ham ustozlik xizmatin.
Xumor o'xshab ustoziga,
Dono bo'lib olgan mish.
Savol-javob aytishuvda
Elga dovrug' solgan mish.
Yana shohning otboqari
Zohir degan mard yigit,
Yosh bo'lsa ham aqli raso,
Yigitlarga bosh yigit,
O'rgatgan mish ot chopishni
Puxta qilib mashqini.
Qiz qalbida paydo bo'lib,
Amudaryo toshqini,
Poygalarda qatnashgan mish
Kiyib erkak libosin.

Yenggan emish ko‘p yigitni,
Quvontirib ustozin.
Qiz dovrug‘i ketgan emish,
Eldan oshib ellarga.
Go‘zalligi, donoligi,
Doston bo‘lib tillarga...



III

Shoh yursa-da, qizining bu
Dong‘idan goh quvonib,
Bir dardini aytmagan mish,
Hech kimsaga ishonib.
Shu dard bilan cho‘mgan emish,
Xayol dengizlariga.
O‘z tamg‘asin bosgan emish,
Shu dard shoh yuzlariga...
Pinhon o‘g‘il ko‘rmadim deb
Qayg‘urgan mish kun-u-tun.
Shu armoni qiynagan mish,
Qilib doim jigar xun.
Xumor esa ta’lim olgan
Qiz emasmi donodan,
Buni sezib yurgen mish,
Yuzidagi ma’nodan.

Lekin sir boy bermagan mish,
Kutib, shohga bir kuni —
O'g'il o'rmin bosajagin,
Isbotlashning paytini...



IV

Qaranglar-a, shu kunlarda,
Ko‘chmanchilar «sardori»,
Sardor emas, o‘zin shunday,
E’lon qilgan bezori,
To‘g‘rirog‘i qaroqchilar
Yo‘l boshchisi – badkirdor,
Ollom degan bir bosqinchi,
Lekin o‘ta tadbirdor,
Ko‘hna Urganch atrofida
Paydo bo‘lib qolgan mish.
Ham eshitib qiz ta’rifin,
Shaydo bo‘lib qolgan mish.
Ollom uzoq o‘ylamasdan,
Yuborgan mish bir chopar.
Chopar kelib topshirgan mish
Shohga shunday xat-xabar:

«Ulug‘ shohim! Salomdan so‘ng,
Sizga muhim so‘zim bor.
O‘g‘lingiz yo‘q, xafa bo‘lmang,
Mana meni o‘zim bor.
Balki meni tanimassiz,
Men qizingiz xushtori
Shoh Ollomman qudrati zo‘r,
Ko‘chmanchilar «sardori».
Choparimni qabul qilib,
Bir sovchining o‘rnida,
«Xo‘p» degan bir so‘zingizga
Muntazirman men juda».
Shoh o‘zini qo‘lga olib,
Vazirlarga boqqanmisht,
So‘ng choparga yaqin borib,
Yelkasiga qoqqanmisht,
Va deganmisht: Qani, mehmon,
Hayallamay tezroq qayt,



Beradigan qizim yo‘qdir,
«Sardor»ingga borib ayt».
Chopar yurib orqasiga,
Darhol chiqib ketgan mish...
Shohning bergen javobini
Hamma ma’qul etgan mish.



Y

Endi ular turatursin,
Gapni so‘rang Ollomdan.
Xat yuborib shoh qizini
Talab qilgan odamdan.
Kutgan emish u besabr
Qaytmog‘ini choperin,
Qo‘zg‘ab Ollom g‘azabini
Shohning javob xabari,
Ikkinchı kun jo‘natganmish,
Yana choper xat berib.
Choper xatni topshirganmish
Shoh qo‘liga keltirib:
«Ulug‘ shohim, sizga bo‘lgan
Hurmatimni bilmabsiz.
Mening kuchim, quvvatimni
Nazarga ham ilmabsiz.
Jahlim chiqqan bo‘lsa hamki,

Yana sizdan iltimos,
Ra'yingizdan qayting, shohim
Yaxshilikcha, so'zim rost.
Ahdingizdan qaytib agar
Bermasangiz Xumorni,
O'zingizdan ko'ra bering,
Ko'plar chekkan ozorni...»
Shoh farmoni bilan xatni,
Kotib o'qib bergen mish.
Saroy ahli ne derkan deb
Shohga qarab turgan mish.
Shoh shu zahot boqqan emish
«Xo'sh» deb lashkarboshiga.
Lashkarboshi ta'zim qilib,
Yaqin borib qoshiga.
Degan emish: «Ulug' shohim,
Qo'shin tayyor urushga.

Kuchimiz bor shahrimizni
Omon saqlab turushga.
Toki tanda jonimiz bor,
Kelolmaydi yov yaqin.
Amin bo‘ling, dev kelsa-da,
Chiqaramiz abjag‘in.
Qaroqchining chopariga
Javob bering, yo‘qolsin.
Borib aytsin «sardoriga»
Jang qilmoqqa yo‘l olsin...»
Shoh imosi bilan darhol,
Chopar chiqib ketganmish.
Lashkarboshi javobini
Hamma ma’qul etganmish...

VI

Shoh buyurib zudlik bilan,
Soldirmoqni elgajar,

Jang haqida butun xalqqa
Berishganmish tez xabar.
Biron kishi tushmay hatto,
Bu xabardan dahshatga.
Shahar xalqi yoppasiga
Ko‘chib harbiy holatga.
Ov yarog‘i, bolta, tesha,
Kosovlarni tayyorlab.
Yov qal’aga bosib kirsa,
Beramiz deb biz ham zARB,
Yetti yoshdan yetmish yoshlik—
Chol-u kampir,qizgacha,
Bo‘lgan emish urushga shay
Uxlamasdan shu kecha...

VII

Lashkarboshi qo‘shinini
Keng maydonga etib saf,
Bo‘lib har xil bo‘limlarga
Boshliqlarni tayinlab,

Vaziyatni tushuntirib,
Qurol bilan ta'minlab,
Harbiyyona farmon berib
Ishlatmasdan ortiq gap,
Har bo'limga ko'rsatib o'z —
Mudofaa nuqtasin,
Degan emish: «Bu kurashda
Har kim sherga o'xshasin...»



VIII

Qilichbozlar ot egarlab
Darvozalar oldida
Har birining yovga qarshi
Nafrat qaynab qalbida,
Piyodalar chiqib qal'a —
Devorlarin ustiga,
Har birisi borib, turib —
Ko'rsatilgan postiga,
Boqib maxsus tuynuklardan,
Qaroqchilar yo'liga,
O'qlarini shaylab qo'yib,
Yoyin olib qo'liga,
Turgan emish har birisi
G'alabaga ishonib.
Bu holatni ko'rib chiqib,
Shoh qolganmish quvonib.

Shohning qizi Xumor kiyib
Erkaklarning libosin,
Zohir ikkov qurollanib
Ogoh qilmay otasin,
Aralashib ketgan emish,
Qilichbozlar ichiga.
G‘azabidan ikkovic ham,
Kuch qo‘silib kuchiga,
Turganmishlar mardonavor
Dushmanni yeb qo‘ygudek.
Ollom tirik qo‘lga tushsa
Ko‘zlarini o‘ygudek...

IX

Qani endi kelaversin,
Bo‘lsa hamki ajdaho.
O‘lgunicha eslab yurar,
Yegan zarbin u, yuho!..

X


Ollom xatda yozganidek
Qo'shin tortib, yo'l yurib.
Qirq chaqirim masofadan,
Saf boshida ot surib.
Tongda yetib kelgan emish,
Ko'zlariga to'lib qon.
Maqsadiga yetmoq uchun
Bo'lsa hamki, qiynab jon.
Butun shahar atrofini,
Darhol o'rabi olgan mish...
Hech kim qarshi chiqmadi deb,
Hayron bo'lib qolgan mish.
Sezmagan mish qilmishlarin —
Turganlarin kuzatib.
Endi bunday yurmayin, deb
Vaqtni bekor uzatib,
Yaxshi-yaxshi otliqlardan
Tanlab olib qoshiga,



24

Kiyib temir (oltin tojli)
Qalpog‘ini boshiga,
Bosh darvoza qarshisiga
Dashnom qilib borganmish.
Tez ochilsin darvoza deb,
Shovqin-suron solganmish.






Qichqirganmish, o‘z ta’rifin
O‘zi qilib ovoza.
Shunda birdan lang ochilib,
Ketgan emish darvoza.
Undan qilich yalong‘ochlab
Suvoriylar izma-iz —
Chiqib unga tashlanganmish
Mag‘rur kelib yuzma-yuz.
Boshlanganmish qilichbozlik,
Boshlanganmish bellashuv.
Boshlanganmish dahshatli jang,
Boshlanganmish qiy-da-chuv...
Qilichlarning zarbasidan
U‘chib ketib qancha bosh.
Maydon ichra qolgan emish,
Qancha gavda bo‘lib losh.
Yangrab yana shu fursatda
Lashkarboshi buyrug‘i,
Yov ustiga yog‘ilganmish
Shinaklardan yoy o‘qi...

XI

To kechgacha davom etib,
Shiddatli jang beto'xtov.
Goho ustun, goh past kelib,
Zarb yesa-da beayov,
Qaroqchilar orqasiga
Qaytmaganmish berib tan...



Zohir jangda botirlarcha
Olishgan mish yov bilan.
Xumor birdan qolgan emish
Ollom bilan kelib duch.
Ko'p olishib mohirona,
So'ngra tortib bir qilich,
Uchrashgan mish alla¹qilib,—
Boshidagi tojini.
Ollom undan g'azablanib,
Olmoq bo'lib boshini
Qancha-qancha urunsa-da,
Eplay olmay qolgan mish...
Xumor uning qilichin ham
Ikki bo'lak qilgan mish...

¹Alla — chirpirak.





XII

Ollom devqalb raqibining
Bilmagan mish kimligin.
Qoyil qolib mardligiga
Tan bergen mish, u, lekin...

U aslida ko‘hna Urganch
Qal’asining ichiga,
Kirib taslim qilaman deb
Ishonib o‘z kuchiga,
Olaman deb, kelsa hamki,
Odil shohning qizini,
Birinchi bor hayotida
Mag‘lub ko‘rib o‘zini,
Quruq qaytib ketgan emish.
Baland boshin qilib past.
Lekin qizdan umidini
Tamomila uzibmas...

XIII

Ollom ancha o‘ylanganmish,
O‘ylanganmish ezilib,
Jangda mag‘lub kelganligi
O‘ta og‘ir sezilib.
O‘z raqibin ko‘z oldiga
Keltirganmish necha bor.

Mast bo‘lguncha may ichganmish,
O‘zidan beixtiyor.
Degan emish o‘z-o‘ziga:
Past ketdimmi shuncha ham
Bir g‘o‘rgina yosh yigitdan
Yengildim deb o‘tirsam.
Mumkin emas bu tushimdir,
Yo‘q tush emas haqiqat...
Qanday bo‘lsa shunday bo‘lsin,
Lekin endi men faqat
Shoh qizini olishim shart,
Bo‘lsa-da qay yo‘l bilan...
Ha, ha...topdim, ular o‘zi
Keltiradi qo‘l bilan...

XIV

Ko‘hna Urganch omon qolib,
Qaroqchilar qahridan.
Endigina erkin shamol
O‘tib tursa bag‘ridan,

Ko‘p tadbirkor kishilarni
Huzuriga etib jam,
Buyurganmish suv yo‘liga
To‘g‘on soling, deb Ollom.
Bu buyrug‘i olti oyda
Oshirilib amalgा,
Ollom bo‘lib o‘zidan shod,
Yana minib jadalga.
O‘tirganmish o‘z tadbirin
O‘ylab oqibatini...
Javob kutib odil shohdan
Yo‘llab xabar xatini...
Urganch ahli holsizlanib,
Suv ichib bir quduqdan.
Lekin to‘ymay, foydalanib --
Berilgan keng huquqdan.
Ozib-to‘zib, horib-tolib,
Qolib ketib qamalda,
Kun kechira boshlaganmish
O‘ta xarob ahvolda.

Nav-nihollar sarg‘ayibdi,
Qizil gullar qovjirab.
Qolgan ekan odamlari,
Tashnalikdan qaltirab.
Shoh bu holdan qutulishning
Chorasini axtarib,
Yig‘in qilib turganida
Ham Xudoga yolvorib,
Huzuriga kirgan emish
Ollom yuborgan chopar.
Ta’zim qilib topshirgan mish
Unga shunday xat-xabar:
«Ulug‘ shohim, tan olaman,
Jangda sizdan yengildim,
O‘ylamang-ki bu deganim,
Endi sizga egildim.
Qudratim bor tag‘in hali,
Jang qilmoqqa siz bilan.
Balki dersiz maqtanarsan,
Yana qanday yuz bilan.


Yengish bilan yengilish ham
Urushdagi qoida.
Kimning kuchi ko‘proq bo‘lsa,
Ishi bo‘lar joyida...
Kuch to‘pladim, endi aslo,
Yengilmayman hech qachon.
«Xo‘p» desangiz ertagayoq,
Boshlanadi «Al-omon».
«Qo‘y» desangiz, maqsadimni
Tushunasiz, qo‘llaysiz.
Qizingizni sovg‘a qilib
Menga darhol yo‘llaysiz.
Shoh aylanib qaraganmish
«Qani xo‘sh» deb qiziga.
Humor esa kulibgina
Boqib uning yuziga,
Degan emish: «Buzrukvorim,
Tashvish tortmang sira ham,
Bu yog‘ini menga qo‘yib
Bo‘lavering xotirjam.

Sardoriga borib aytsin,
Tez qaytaring choparin,
Mening yetib borishimning
Ma'lum qilsin xabarin.
Shoh imosi bilan darhol,
Chopar chiqib ketgan mish.
Qizning bergen javobini,
Hamma ma'qul etgan mish.
Shohga qizi odob bilan
Ta'zim qilib egib bosh,
Degan emish: Sizga mening
Muhabbatim bir quyosh.
Iltimosim duo qiling,
Men tayyorman safarga.
Shoyad meni yo'ldosh qilgay
Shu duongiz zafarga.
Men Ollomga ochdiraman
Suv yo'llarin shubhasiz.
Ham qaytaman eson-omon,
Amin bo'ling bunga siz.

Amin bo'ling, yigitlardan
Kam emasdир qizingiz.
Agar «o'g'lim» desangiz ham
Qizarmaydi yuzingiz.
Shoh qizini duo qilib,
Oq fotiha bergenmish.
Qiz iltimos qilib yana
Shohga shunday deganmish:
«Buzrukvorim, menga endi
Qirq toychoqliк ot kerak.



Qirqtasidan biri bo'lsin
Ozib qolgan—jonsarak...
Savol bermang, bir iltimos,
So'ng bilasiz, siri bor.
Xafa bo'l mang, ham kuzatmang,
Ketmoq uchun men tayyor.
Dargohingiz otboqari
Zohir meni kuzatsin.
Farmon bering, u otlarning
Anjomlarin tuzatsin».





XVI

Xumor nima degan bo'lsa
Qilganmishlar muhayyo.
Ot boqishga ketayotgan
Cho'pon bo'lib u go'yo,
Qirq toychog'li otni haydab
Zohir bilan yonma-yon,
Yo'lga ravon bo'lganini
Ko'rmanmish hech inson.
Zarur bo'lib qolar degan
Fikr chulg'ab xayolin,
Zohir qo'shib chiqqan emish,
Qirqta otga tulporin.

XVII


Darvozadan chiqish bilan,
Xumor boqib Zohirga
Degan emish: «Bir toy olib
Siz qolasiz shu yerda.


Men onasin bir chaqirim
Nari o‘tib bog‘layman.
To yo‘limning so‘ngigacha
Shunday qilib taxlayman...
Bolajonlar aytib qo‘yay,
Kelganida xonasi,
Qulunli ot orqasida,
Qolib ketsa bolasi,
Bor kuchini sarflab unga
Intiladi qaytishda...
Xumorga shu kerakligin
Zohir anglab aytishdan.
Degan emish: «Nega endi,
Bu ishlarni men qolib —
Sen qilasan, qayt so‘zingdan,
Aytayapman yolvorib».
Xumor vaqtning ziqligidan
So‘z talashib o‘tirmay.
Degan emish: «Birga yuring,
Chindan ham ish bir talay».

XVIII

Shunday qilib, ikkita yosh
Changitib yo'l tuprog'in,
Har chaqirim yerda bog'lab
Bitta otning toychog'in,
Ham bolasi qoldirilgan
Otni bog'lab yoniga,
Yaqinlashib borganmishlar
Qaroqchi makoniga...
Bir chaqirim qolganida
Shohlikdagi libosin —
Kiyib Xumor, qilib yana
Ba'zi pardoz-andozin,
Jonsarakni minib olib,
Endi oxir so'ngida
Begona ot bilan toyin,
Bog'latib ko'z o'ngida,
Degan emish: «Zohir aka,
Ketdim Ollom oldiga.

Bizlar hali g‘isht qalaymiz
Omon bo‘lsak qabriga.
Siz-chi, darhol minib oling,
Tulporingiz beliga.
Qarab turmang, qaytib boring,
Ko‘hna Urganch eliga.
Meni kuting darvozadan
Ichkariga kirmasdan...»
Jonsarakka qamchi urib,
Bir zum kutib turmasdan,
Ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan emish,
Aylanmadan aylanib.
Zohir og‘ir bir uh tortib,
Qolgan emish o‘ylanib.
O‘ylab-o‘ylab o‘ylarining
Oxiriga yetolmay,
Qolay desa, keting degan
Ketay desa ketolmay,
Uzoq turib qolgan emish,
O‘z joyida parishon...





So‘ng ketganmish, iloj topmay,
Bo‘lib yurak-bag‘ri qon...
O‘yni o‘ylab chalg‘itishga,
Shaytonga erk bermasdan.
Yetib borib, turgan emish
Darvozadan kirmasdan...

XIX

Xumor yana yo‘l-yo‘lakay,
Reja tuzib olganmish.
Qaroqchilar makoniga,
Dadil kirib borganmish.
Ko‘rib Ollom chodirini
Poylab turgan soqchilar,
Sardoridan ta’lim olgan
Bir to‘da qaroqchilar,
Go‘zal husni-jamoliga,
Qarab qolgan emishlar.
Hayron bo‘lib atrofini
O‘rab olgan emishlar...

Minib kelgan baytalini
Mazax qilgan emishlar.
O'zlaridan beixtiyor
Rosa kulgan emishlar...

XX

Kulgi sasi uyg'otgan mish
Uxlab yotgan Ollomni.
Jahli chiqib, shovqin solib,
Qovurgudek olamni.
«Jim bo'linglar ahmoqlar» deb
Ichkaridan qilib do'q,
Chodiridan tashqariga
Otilgan mish misli o'q.
Kutilmagan yerda birdan,
Ko'zi tushib Xumorga,
Sochi sunbul, qoshi kamon,
Yuzi olma-anorga.
Qolgan emish birdaniga

Taqqa to'xtab, bo'lib lol.
Xumor shunda shirin so'zlab,
Tillaridan tomib bol...
Degan emish: «Salom, sardor!
Shohning qizi Xumorman.
Mana keldim farmon bering,
Bajarishga tayyorman...»
Ollom esa undan sira
Uzolmasdan ko'zini,
Hayajonin bosib zo'rg'a,
O'nglab zo'rg'a o'zini,
Degan emish: «Bosh ustiga,
Xush kelibsan, malikam.
Sen kelding-u, oftob chiqib,
Yorug'landi keng olam.
Qani endi otingdan tush,
Yaqinroq kel yonimga.
Sening uchun ancha kuydim,
Orom kirsin jonimga...»

«Xo‘p» degan mish Xumor kulib,
Lekin mening shartim bor.
Mard bo‘lsangiz bajarasiz,
O‘zingizda ixtiyor!
Qo‘lingizda asiraman,
O‘zim keldim «sardorim».



Himoyamda hech kimsa yo‘q,
Ortda qoldi diyorum.
Shartlarimni bajarsangiz,
Men sizniki umrbod.
Ishonaman, otdan tushmay,
Qilarsiz deb, meni shod.
Otdan zo‘rlab tushirmoqni
O‘ylasangiz siz agar,
Sizga yo‘qman, tilginamning
Ostida bor bir zahar...»
Ollom qo‘rqib ketgan emish
«Zahar» so‘zini eshitib.
Shartlarini bajarmoqqa
Qasam ichib, ahd etib,
«Ayt» degan mish shartlaringni,
Bajaraman, malikam.
«Birinchisi» degan emish,
Kam kelmasdan Xumor ham.

Ko‘z oldimda suv yo‘lini,
Ochtirasiz shaharga!»
Ollom farmon bergen emish,
«Ochinglar» deb lashkarga...
Hamma chiqib Amudaryo
Sohiliga shu zahot...
Suv yo‘llarin ochganmishlar,
Ko‘rsatishib jasorat.



Mutaxassis kishilarning
Olti oylik mehnati,
Kuygan emish bir kundayoq,
Yetgan kabi fursati.

XXI

«Oxirgi shart» degan emish,
Xumor tushmay otidan.
Hazar qilmay otimning bu
Ko‘rimsiz holatidan,
Siz quvlaysiz tulpor minib
Endi mening izimdan.
Quvib yeting, siznikiman
Men kecharman o‘zimdan.
«Xo‘p» deganmish Ollom befarq,
Tulporiga ishonib.
«Qani hayda» degan emish
Yana bir bor maqtanib.
Qamchi urib jonsarakka,
Xumor chopib ketganmish.

Bir zumdayoq, ot toychog‘i —
Qolgan joyga yetgan mish.
Xumor darhol sakrab o‘tib,
Ikkinchot beliga,
«Chuv» jonivor degan emish
Ozor bermay diliga.



Bu g‘arib ham kuch boricha
Yeldek yelib ketganmish.
Bir zumdayoq ot bolasi
Qolgan joyga yetganmish...

Xuddi shunday uchinchi ot,
To‘rtinchi ot...Xullasi,
Beshinchi ot, oltinchi ot...
Birdek hamma-hammasi,
Har ot yo‘lin ado etib,
Manziliga yetganmish.
Qaroqchining tulpori-chi
Ortda qolib ketganmish.
Ollom, Xumor «jonsaragin»
Ko‘rib, g‘arib ahvolin, —
Aslo nazar-pisand qilmay,
Ko‘z-ko‘z qilib tulporin,
Befarqgina, hatto kulib,
Haydab ketgan bo‘lsa-da...

Hozir yetib olaman deb
O'ylab ketgan bo'lsa-da...
Chang-to'zonda qolib ketib,
Rosa xunob bo'lganmish.
Yetolmasdan achchiq qilib,
Tulporini urganmish...
G'azabidan tan-badani
Go'yo bo'lib o't-olov,
Yeldirganmish-yeldirganmish
Tulporini beto'xtov...



Qandaydir bir xomxayollar
Dalda berib qalbiga,
Bilmagan mish kelganini
Darvozaning oldiga.
Qarasaki yo'li tugab,
Oti to'xtab qolgan mish.
Tushunolmay chor-atrofga,
Birdan nazar solgan mish.
Turgan emish qarshisida
Xumor, Zohir kulishib,



Baxtli bo‘lgan oshiqlardek,
Maqsadiga erishib.


XXII

Kulib Zohir so‘z boshlabdi,
Bosqinchiga tik boqib.
«Bir holatda qolibsan-ku
Bekor yonib, tutoqib.
Uyat senga bir jonsarak—
Ot izidan yetmabsan.
Yigitlikning olijanob
Burchin ado etmabsan.
Bir qizchalik bo‘lolmabsan,
Yaxshimasmi o‘lganing...
Nima foyda berdi senga,
Endi yetib kelganing...»
Ollom otdan tushgan emish
Mushtin tugib, o‘qtalib.
Zohir jimjit turgan emish
Netarkan deb sin solib.

So‘ng ikkovi botirlarcha
Rosa uzoq jang qilib,
Jon bergannish Ollom axir
Raqibidan yiqilib...

XXIII


Tepib tashlab bir chuqurga
Raqibining loshini.
Qarab turgan Xumor tomon
Zohir burib boshini,
Degan emish: «Qani ketdik,
Bo‘ldi endi ish tamom».
Ikkovlari bir-birini
Qilib hurmat-ehtirom.
Darvozadan salom berib
Kirib ketgan emishlar.
Odil shohning huzuriga
Borib yetgan emishlar...




XXIV

Ariqlarda suvlar to‘lib
El quvonib qolibdi.
Qaqrab yotgan ko‘hna Urganch
Bayram tusin olibdi.
Tashlanibdi hamma suvga
Ishonmasdan ko‘ziga,
Bir-birovga suv socharmish,
Suv socharmish o‘ziga...









XOTIMA

Shoh quvonib, ma'lum bo'lgach
O'tgan butun voqea.
Ikki yoshning shanlariga
Dildan o'qib madhiya.
Degan emish: «Ikkoving ham
Ekansizlar dovyurak...
Mendan sizga sezishimcha
Endi fotiha kerak.
Men roziman, omin denglar,
Omin denglar yaxshilar!
To'y boshlaymiz kelsin yetib,
Sozandalar, baxshilar...

